

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



**ISSN: 3060-463X**



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

## Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....	141
<b>Джуманов А.А.</b>	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....	152
<b>V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov</b>	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....	158
<b>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</b>	
QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....	165
<b>M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov</b>	
ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	172
<b>Алиев Али Комил угли, Каримова А.</b>	
ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	176
<b>S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov</b>	
AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....	179
<b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....	183
<b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	187
<b>Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна</b>	
GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH.....	192
<b>Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi</b>	
РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	200
<b>Тураева А. И.</b>	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....	204
<b>Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....	208
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....	216
<b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>	



ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА.....	221
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI.....	228
<b>Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi</b>	
XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI.....	233
<b>Ismailov Naufal Nadirovich</b>	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	241
<b>Eshqobulova Charos O'roq qizi</b>	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING.....	245
<b>Begzod Nishanov</b>	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY SUG'URTA (TAKAFUL) TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI: NAZARIY-QIYOSIY TAHLIL.....	251
<b>Abdullayev Azamat Akbar o'g'li</b>	
RAQAMLI MARKETING VA MILLIY BRENDLASH ORQALI TURIZM EKSPORTINI OSHIRISH: YAQIN SHARQ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON UCHUN YO'L XARITASI.....	259
<b>Bekmurodova F.A., Tolibova Aziza</b>	
MEVA-SABZAVOTCHILIK QUYI MAJMUASIDA LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	263
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
EMPLOYEE WELL-BEING IN POST-REFORM UZBEKISTAN: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW AND RESEARCH AGENDA.....	268
<b>Farida Nishanova</b>	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI.....	274
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ И ДИНАМИКИ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПОТОКОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (2010–2024 ГОДЫ).....	278
<b>Бекимбетова Мария Махсетуллаевна</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O'TISH MEKANIZMINING MIQDORIY VAHOLANISHI.....	282
<b>Urazmatov Jonibek Musurmanovich</b>	



# O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I ZANJIRIGA INTEGRATSIYALASHNING FISKAL VA IQTISODIY SAMARADORLIGI: IXTIYORIY O‘TISH MEXANIZMINING MIQDORIY BAHOLANISHI

**Urazmatov Jonibek Musurmanovich**

Guliston davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: [jonibei1186@gmail.com](mailto:jonibei1186@gmail.com)

ORCID: 0009-0005-9468-5761

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari — yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarni qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) zanjiriga ixtiyoriy integratsiyalash mexanizmining fiskal va iqtisodiy samaradorligi miqdoriy jihatdan baholanadi. Aylanma solig‘i o‘rniga QQS va foyda solig‘iga ixtiyoriy o‘tishning davlat budjeti, kichik biznes subyekti hamda xaridor uchun yuzaga keltiradigan uch tomonlama samarasi tahlil qilinadi. 2025-yil ma‘lumotlari asosida o‘tish mexanizmining fiskal ta‘siri uchta ssenariy — konservativ, o‘rtacha va optimistik yondashuvlar asosida hisob-kitob qilinadi. Natijalar yiliga 1,0–2,8 trln so‘m miqdorida qo‘shimcha fiskal samara olish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Buyuk Britaniya, Hindiston va Qozog‘iston tajribasi bilan qiyosiy tahlil mazkur mexanizmning xalqaro amaliyotga mosligini hamda kichik biznesni rasmiy iqtisodiy jarayonlarga kengroq jalb etishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, QQS zanjiri, ixtiyoriy integratsiya, fiskal samara, aylanma solig‘i, soliq krediti, uch tomonlama samara, yakka tartibdagi tadbirkor, o‘zini o‘zi band qilgan shaxs.

**Аннотация.** В данной статье проводится количественная оценка фискальной и экономической эффективности механизма добровольной интеграции субъектов малого бизнеса — индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц — в цепочку налога на добавленную стоимость (НДС) в Узбекистане. Анализируется трёхсторонний эффект добровольного перехода с налога с оборота на НДС и налог на прибыль для государственного бюджета, субъекта малого бизнеса и покупателя. На основе данных 2025 года фискальный эффект механизма перехода рассчитывается по трём сценариям — консервативному, среднему и оптимистическому. Полученные результаты показывают возможность формирования дополнительного фискального эффекта в размере 1,0–2,8 трлн сумов в год. Сравнительный анализ с опытом Великобритании, Индии и Казахстана подтверждает соответствие предлагаемого механизма международной практике, а также его практическую значимость для более широкого вовлечения малого бизнеса в формальные экономические процессы.

**Ключевые слова:** малый бизнес, цепочка НДС, добровольная интеграция, фискальный эффект, налог с оборота, налоговый кредит, трёхсторонний эффект, индивидуальный предприниматель, самозанятое лицо.

**Abstract.** This article provides a quantitative assessment of the fiscal and economic efficiency of the mechanism for the voluntary integration of small business entities — individual entrepreneurs and self-employed persons — into the value-added tax (VAT) chain in Uzbekistan. The study analyses the three-sided effect of a voluntary transition from turnover tax to VAT and profit tax for the state budget, small business entities, and buyers. Based on 2025 data, the fiscal impact of the transition mechanism is calculated under three scenarios: conservative, moderate, and optimistic. The results indicate the possibility of generating an additional fiscal effect of 1.0–2.8 trillion soums annually. A comparative analysis of the experience of the United Kingdom, India, and Kazakhstan confirms that the proposed mechanism is consistent with international practice and has practical significance for the broader integration of small businesses into formal economic processes.

**Keywords:** small business, VAT chain, voluntary integration, fiscal effect, turnover tax, tax credit, three-sided effect, individual entrepreneur, self-employed person.



## KIRISH

Kichik biznes subyektlarini qo'shilgan qiymat solig'i zanjiriga integratsiyalash zamonaviy soliq siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon bankining 2024-yilgi tahlillariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida QQS tushumlarining YalMga nisbatan past bo'lishining asosiy sabablaridan biri kichik biznesning undirish zanjiridan tashqarida qolishi bilan izohlanadi [1]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznesni QQS zanjiriga to'liq jalb etish C-samaradorlik koeffitsiyentini 0,10–0,18 punktga oshirishi mumkin [2].

O'zbekistonda 2019-yildan boshlangan soliq islohotlari QQS to'lovchilar sonining sezilarli darajada oshishiga xizmat qildi. 2025-yil 12-avgustdagi PQ-247-son qaror<sup>1</sup> hamda 2025-yil 25-dekabrda O'RQ-1108-son Qonuni<sup>2</sup> bilan 2026-yildan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun 1 foizli aylanma solig'i joriy etildi. Mazkur islohot kichik biznes faoliyatini rasmiylashtirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik muhitini yanada qulaylashtirishga qaratilgan muhim qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining QQS zanjiridagi ishtirokini yanada kengaytirish, ularga QQS invoyslarini rasmiylashtirish, soliq kreditidan foydalanish hamda xaridorlar uchun soliq zanjirida uzluksizlikni ta'minlash imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, kichik biznes subyektlari uchun QQS zanjiriga ixtiyoriy o'tish mexanizmini ishlab chiqish va uning samaradorligini miqdoriy baholash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunday yondashuv davlat budjeti daromadlarini oshirish, kichik biznesning rasmiy iqtisodiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, xaridorlar uchun soliq krediti imkoniyatlarini kuchaytirish hamda soliq tizimining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi kichik biznes subyektlarini QQS zanjiriga ixtiyoriy integratsiyalash mexanizmining fiskal va iqtisodiy samaradorligini davlat, biznes va xaridor manfaatlarini uyg'unligi asosida miqdoriy baholash hamda xalqaro analoglar bilan qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda quyidagi asosiy savollar ko'rib chiqiladi: birinchidan, ixtiyoriy o'tish mexanizmi davlat budjetiga qanday qo'shimcha fiskal samara beradi; ikkinchidan, QQS rejimiga o'tish kichik biznes subyekti uchun qaysi iqtisodiy sharoitlarda foydali bo'ladi; uchinchidan, xalqaro tajriba mazkur mexanizmning samarali ishlashi uchun qanday institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlar zarurligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznesni QQS zanjiriga integratsiyalash masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi. Bird va Gendron (2007) rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznesni QQS tizimiga jalb etishning iqtisodiy mantiqini tahlil qilib, kaskad effektining kamayishi hamda raqobat tengligining ta'minlanishini asosiy afzalliklar sifatida ko'rsatgan [3]. Ebrill va boshqalar (2001) "The Modern VAT" asarida kichik biznes uchun QQS ro'yxatidan o'tish chegarasi hamda ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish tizimining nazariy asoslarini ishlab chiqqan [4].

Ixtiyoriy QQS ro'yxatidan o'tish bo'yicha empirik tadqiqotlar ko'plab mamlakatlar tajribasida amalga oshirilgan. Buyuk Britaniyada Inland Revenue (2004) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ixtiyoriy QQS ro'yxatidan o'tgan subyektlarning asosiy motivatsiyasi kiruvchi QQS kreditidan foydalanish ekani va bu holat ularning tijorat aloqalari kengayishiga xizmat qilishi asoslangan [5]. Hindistonda GST tizimi joriy etilgandan keyin o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish subyektlarning daromadi o'rtacha 12–18 foizga oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [6].

O'zbekiston kontekstida kichik biznes va QQS munosabatlarini bevosita o'rgangan tadqiqotlar bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Niyazmetov (2023) QQS bo'shlig'ini baholashda kichik biznes qamrovining yetarli darajada keng emasligini muhim omillardan biri sifatida aniqlagan [7]. Butayev (2025) kichik biznes subyektlarining QQS tizimiga munosabatini o'rganib, ma'muriy yuk va axborot yetishmasligi ushbu jarayonda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar ekanini ko'rsatgan [8]. Mazkur maqola ushbu tadqiqotlarni rivojlantirgan holda, ixtiyoriy o'tish mexanizmining davlat, biznes subyekti va xaridor uchun yuzaga keltiradigan uch tomonlama fiskal hamda iqtisodiy samarasini miqdoriy jihatdan baholaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uch bosqichli metodologik yondashuv qo'llanildi. Birinchi bosqichda ixtiyoriy o'tish mexanizmining uch tomonlama samarasi tahliliy model yordamida ishlab chiqildi. Bunda davlat budjeti uchun samara, biznes subyekti uchun samara va xaridor uchun samara alohida-alohida modellashtirildi. Ikkinchi bosqichda 2025-yil

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.08.2025 yildagi PQ-247-son <https://lex.uz/uz/docs/-7681520>

2 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.12.2025 yildagi O'RQ-1108-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-7944527>

ma'lumotlari asosida mexanizmning fiskal ta'siri uchta ssenariy bo'yicha hisoblandi. Ssenariylar subyektlarning o'tish ulushiga ko'ra farqlanadi: konservativ ssenariy — 5 foiz, o'rtacha ssenariy — 10 foiz, optimistik ssenariy — 15 foiz. Uchinchi bosqichda xalqaro analoglar — Buyuk Britaniya, Hindiston va Qozog'iston tajribasi bilan qiyosiy tahlil amalga oshirildi.

Biznes subyekti uchun iqtisodiy samarani baholashda quyidagi shartli hisob-kitob formulasi qo'llanildi: **sof iqtisodiy samara = kredit samarasi – qo'shimcha ma'muriy xarajat – soliq farqi**. Kredit samarasi kiruvchi xarajatlar bo'yicha QQS kreditidan foydalanish imkoniyatini ifodalaydi. Qo'shimcha ma'muriy xarajat hisobot yuritish va soliq ma'murchiligi bilan bog'liq xarajatlarni aks ettiradi. Soliq farqi esa aylanma solig'i va QQS bo'yicha sof to'lovlar o'rtasidagi tafovutni bildiradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### Ixtiyoriy o'tish mexanizmining uch tomonlama samarasi.

Ixtiyoriy o'tish mexanizmining samarasi uch asosiy tomon — davlat, kichik biznes subyekti va xaridor manfaatlari kesimida namoyon bo'ladi. Davlat budjeti uchun mazkur mexanizm qo'shimcha QQS tushumlarini shakllantirish, kichik biznes operatsiyalari bo'yicha soliq undirish zanjiri yaxlitligini ta'minlash hamda soliq intizomini mustahkamlash imkonini beradi. Biznes subyekti uchun esa kiruvchi QQS kreditidan foydalanish, yirik xaridorlar bilan ishlashda raqobatbardoshlikni oshirish va rasmiy moliyaviy tizimga yanada to'liq integratsiyalashish imkoniyatlari yuzaga keladi. Xaridor, ya'ni QQS to'lovchi yirik korxonalar uchun chiquvchi QQS bo'yicha soliq kreditidan foydalanish, kaskad effektini kamaytirish va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi (1-jadval).

#### 1-jadval

##### Ixtiyoriy o'tish mexanizmining uch tomonlama samarasi<sup>3</sup>

Tomon	Bevosita samara	Bilvosita samara
Davlat budjeti	Qo'shimcha QQS tushumi — yiliga 1,0–2,8 trln so'm	Soliq undirish zanjiri yaxlitligi ta'minlanadi; yashirin iqtisodiyot qisqaradi; C-samaradorlik oshadi
Biznes subyekti	Kiruvchi QQS kreditidan foydalanish; xarajatlar kamayadi	Raqobatbardoshlik oshadi; yirik xaridorlarni jalb etish imkoniyati kengayadi; bank krediti olish imkoniyati yaxshilanadi
Xaridor, ya'ni yuridik shaxs	Chiquvchi QQS bo'yicha soliq krediti — 12 foiz; soliq yuki kamayadi	Kaskad effekti kamayadi; narx shakllanishi optimallashtiriladi; raqobat muhiti tenglashadi

### Biznes subyekti uchun iqtisodiy samarani miqdoriy baholash.

Ixtiyoriy o'tishning biznes subyekti uchun iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida turli daromad darajasi va xarajatlar tarkibiga ega subyektlar bo'yicha shartli hisob-kitob amalga oshirildi. Ushbu tahlilda kiruvchi xarajatlar tarkibidagi QQS ulushi eng muhim parametr sifatida qaraladi (2-jadval).

#### 2-jadval

##### Ixtiyoriy o'tishning iqtisodiy samarasi: turli daromad va xarajat tarkibida, mln so'm<sup>4</sup>

Ko'rsatkich	200 mln so'm, 30% kiruvchi	200 mln so'm, 60% kiruvchi	500 mln so'm, 40% kiruvchi	500 mln so'm, 70% kiruvchi	800 mln so'm, 50% kiruvchi
Aylanma solig'i — 1%	2,0	2,0	5,0	5,0	8,0
Chiquvchi QQS — 12%	24,0	24,0	60,0	60,0	96,0
Kiruvchi QQS krediti	-7,2	-14,4	-24,0	-42,0	-48,0
Foyda solig'i — 15% foyda	21,0	18,0	45,0	37,5	60,0
Jami soliq yuki	37,8	27,6	81,0	55,5	108,0
Aylanma solig'i va QQS farqi	+35,8	+25,6	+76,0	+50,5	+100,0
Xaridorga kredit beriladi?	Yo'q — 0	Yo'q — 0	Yo'q — 0	Yo'q — 0	Yo'q — 0
QQS rejimida xaridor krediti	24,0	24,0	60,0	60,0	96,0

2-jadval tahlili muhim iqtisodiy qonuniyatni ko'rsatadi: kiruvchi xarajatlar tarkibida QQS ulushi oshgani sari biznes subyekti uchun QQS rejimidagi sof soliq yuki nisbatan kamayib boradi. Masalan, 200 mln so'm daromad va 60 foiz kiruvchi xarajat ulushi mavjud holatda jami soliq yuki 27,6 mln so'mni tashkil etadi. Bu aylanma solig'i

3 Muallif ishlanmasi.

4 Muallifning shartli hisob-kitobi.



miqdoridan yuqori bo'lsa-da, xaridor uchun 24,0 mln so'mlik QQS krediti imkoniyatini yaratadi. Mazkur holat yirik xaridorlarni QQS to'lovchi subyektlardan mahsulot yoki xizmat sotib olishga rag'batlantiradi. Amaliyotda savdo va ishlab chiqarish tarmoqlarida kiruvchi xarajatlar ulushi 50–75 foiz atrofida bo'lishi mumkinligi sababli ushbu toifadagi subyektlar uchun ixtiyoriy o'tish iqtisodiy jihatdan istiqbolli yo'nalish sifatida qaraladi.

**Fiskal ta'sirni uch ssenariy bo'yicha baholash.** Mexanizmning davlat budjetiga ta'sirini baholash maqsadida 2025-yil ma'lumotlari asosida uchta ssenariy bo'yicha fiskal hisob-kitob amalga oshirildi. Hisob-kitoblarda QQS rejimiga o'tadigan subyektlarning o'rtacha yillik daromadi 400–500 mln so'm, kiruvchi xarajatlar ulushi esa 50 foiz deb qabul qilindi (3-jadval).

### 3-jadval

#### Ixtiyoriy o'tish mexanizmining fiskal ta'sirini baholash, 2025-yil asosida<sup>5</sup>

Parametr	Konservativ ssenariy — 5%	O'rtacha ssenariy — 10%	Optimistik ssenariy — 15%
O'tish uchun maqsadli subyektlar, jami 5,76 mln	~288 000	~576 000	~864 000
O'tuvchi subyektlar soni	~14 400	~57 600	~129 600
O'rtacha yillik sof QQS to'lovi, mln so'm	70–100	70–100	70–100
Qo'shimcha QQS tushumi, mlrd so'm	1 008–1 440	4 032–5 760	9 072–12 960
Yo'qotilgan aylanma solig'i, mlrd so'm	–86	–345	–778
Sof fiskal samara, mlrd so'm	922–1 354	3 687–5 415	8 294–12 182
Bilvosita samara — zanjir yaxlitligi	Past	O'rtacha	Yuqori

#### Xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil.

Ixtiyoriy QQS ro'yxatidan o'tish tizimi bir qator mamlakatlarda samarali qo'llanilmoqda. Buyuk Britaniyada soliqqa tortiladigan aylanma chegarasi 90 000 funt sterlingdan past bo'lgan subyektlar ixtiyoriy ravishda QQS ro'yxatidan o'tish imkoniyatiga ega. Ushbu mexanizm subyektlar soni va daromadlar bo'yicha monitoringni kuchaytirish orqali qo'shimcha fiskal samarani shakllantirishga xizmat qilmoqda [5]. Hindistonning GST tizimida ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish imkoniyati 2017-yildan joriy etilgan bo'lib, 2023-yilga qadar 1,2 mln dan ortiq subyekt ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tgan [6]. Qozog'istonda esa 2026-yildan QQS ro'yxatidan o'tish chegarasining 20 000 MCI dan 10 000 MCI gacha pasaytirilishi ixtiyoriy integratsiya mexanizmini yanada faollashtirishga xizmat qilmoqda (4-jadval).

### 4-jadval

#### Ixtiyoriy QQS ro'yxatidan o'tish: xalqaro tajriba va O'zbekiston bilan qiyoslash<sup>6</sup>

Mamlakat	Chegara — ixtiyoriy tartib	Ixtiyoriy to'lovchilar	Asosiy saboq
Buyuk Britaniya	90 000 funt sterlinggacha	~300 ming	Ro'yxatdan o'tish tartibining soddaligi va soliq krediti rag'batining kuchliligi
Hindiston	40 lakh rupiygacha	1,2 mln dan ortiq	Raqamli tizim ixtiyoriy o'tishni osonlashtiradi
Qozog'iston	10 000 MCI dan	Kengayib bormoqda	Chegaraning pasaytirilishi integratsiyani jadallashtiradi
O'zbekiston — taklif	1 mlrd so'mgacha	Potensial 288–864 ming	Ixtiyoriy o'tish tartibini Soliq kodeksiga kiritish maqsadga muvofiq

Tadqiqot natijalari ixtiyoriy o'tish mexanizmining O'zbekiston uchun ham fiskal, ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi. O'rtacha ssenariyda yillik 3,7–5,4 trln so'm qo'shimcha sof fiskal samara 2025-yilgi budjet taqchilligining 39,4 trln so'mlik hajmiga nisbatan taxminan 9–14 foizini qoplash imkonini beradi. Bilvosita samara — soliq undirish zanjiri yaxlitligining ta'minlanishi va yashirin iqtisodiyotning qisqarishi — ushbu ko'rsatkichning yanada ortishiga xizmat qilishi mumkin.

Buyuk Britaniya va Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, ixtiyoriy o'tish mexanizmining muvaffaqiyati uchta asosiy shart-sharoitga bog'liq. Birinchidan, o'tish tartibi oddiy va aniq bo'lishi zarur. O'zbekiston sharoitida bu Soliq kodeksiga maxsus modda kiritish orqali ta'minlanishi mumkin. Ikkinchidan, raqamli infratuzilma tayyor bo'lishi lozim. Bu borada mamlakatda e-invoys tizimining mavjudligi muhim amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, subyektlar ixtiyoriy o'tishning iqtisodiy foydasi haqida yetarli darajada xabardor bo'lishi zarur. Bunda axborot kampaniyalari va maxsus hisob-kitob kalkulyatorlari muhim ahamiyat kasb etadi.

5 Muallif hisob-kitoblari.

6 OECD (2024), HMRC (2023), GST Council India (2023), Qozog'iston Moliya vazirligi (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Muhim jihatlardan biri shundaki, tadqiqotda hisoblangan fiskal samara o'rtacha ssenariyda 3,7–5,4 trln so'mni tashkil etishi mumkin. Mazkur hisob-kitoblari subyektlar soni 5,76 mln va o'tish ulushi 10 foiz deb qabul qilingan taxminlarga asoslanadi. Amaliyotda haqiqiy o'tish ulushi birinchi yilda 2–3 foiz atrofida bo'lishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu konservativ ssenariyga yaqin natijani beradi. Shu sababli tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, mazkur mexanizm fiskal jihatdan ijobiy samara berish salohiyatiga ega bo'lib, bilvosita rag'batlar orqali biznes subyektlari uchun ham iqtisodiy manfaat yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Kichik biznes subyektlarini QQS zanjiriga ixtiyoriy integratsiyalash mexanizmi davlat, biznes va xaridor manfaatlari kesimida uch tomonlama ijobiy samara yaratadi. Davlat uchun qo'shimcha fiskal tushum va soliq zanjiri yaxlitligi, biznes uchun kiruvchi QQS kreditidan foydalanish va raqobatbardoshlikning oshishi, xaridor uchun esa kaskad effektining kamayishi asosiy samaralar sifatida namoyon bo'ladi.

Kiruvchi xarajatlar tarkibida QQS ulushi 50–60 foizdan oshgan kichik biznes subyektlari uchun QQS rejimiga ixtiyoriy o'tish iqtisodiy jihatdan istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bunday holatda soliq yuki nisbatan optimallashtiriladi va biznes subyektlarining yirik xaridorlar bilan ishlash imkoniyatlari kengayadi.

O'rtacha ssenariyda, ya'ni subyektlarning 10 foizi QQS rejimiga ixtiyoriy o'tganda, yiliga 3,7–5,4 trln so'm miqdorida sof fiskal samara shakllanishi mumkin. Bu 2025-yilgi budjet taqchilligining taxminan 9–14 foizini qoplash imkonini beradi.

Buyuk Britaniya, Hindiston va Qozog'iston tajribasi ixtiyoriy o'tish mexanizmining muvaffaqiyatli ishlashi uchun uchta muhim shart mavjudligini ko'rsatadi: ro'yxatdan o'tish tartibining soddaligi, raqamli infratuzilmaning tayyorligi va subyektlar uchun axborot-tushuntirish ishlarining samarali tashkil etilishi.

Mazkur mexanizmni amaliyotga tatbiq etish uchun Soliq kodeksiga ixtiyoriy o'tish tartibini belgilovchi alohida norma kiritish, my.soliq.uz platformasida maxsus hisob-kitob kalkulyatorini ishlab chiqish hamda birinchi yil uchun soddalashtirilgan QQS hisobotini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1] World Bank. Uzbekistan: Country Economic Update. — Washington, 2024.
- [2] OECD. Consumption Tax Trends 2024. — Paris: OECD Publishing, 2024.
- [3] Bird R.M., Gendron P.P. The VAT in Developing and Transitional Countries. — Cambridge University Press, 2007.
- [4] Ebrill L., Keen M., Bodin J.-P., Summers V. The Modern VAT. — Washington: IMF, 2001.
- [5] HMRC. VAT Notice 700/1: Should I Be Registered for VAT? — London, 2023.
- [6] GST Council India. Annual Report on GST Implementation 2022–2023. — New Delhi, 2023.
- [7] Niyazmetov I.M. Estimating Value Added Tax Gap in Uzbekistan // Finance: Theory and Practice. — 2023. — Vol. 27, No. 5. — P. 58–71.
- [8] Butayev B.J. Soliq tizimini modernizatsiya qilish sharoitida QQS ma'murchiligini takomillashtirish // EJRD. — 2025. — Vol. 6, No. 8.
- [9] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-247-son qarori. — 2025-yil 12-avgust.
- [10] Keen M., Lockwood B. The Value-Added Tax: Its Causes and Consequences // Journal of Development Economics. — 2010. — Vol. 92, No. 2. — P. 138–151.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)